XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2024 - yil 23 - yanvar VI-96-10-7-100-K/24 Payariq tumani hokimligi

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Payariq tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-74-324-7-100-K/22-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 147-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-martdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida” PF-45-son va 2023-yil 17-noyabrdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida” PF-196-son Farmonlari ijrosini ta’minlash hamda tuman hokimi birinchi o‘rinbosarining 2023-yil 25-dekabrdagi bildirgisi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2023-yil 13-dekabrdagi (17-478-sonli) xatini inobatga olib, xalq deputatlari Payariq tumani Kengashi oltinchi chaqiriq, to‘qson oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Ollanov va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining Xalq deputatlari Payariq tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Payariq tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-74-324-7-100-K/22-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Payariq tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-74-324-7-100-K/22-sonli qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq;

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Payariq tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-74-324-7-100-K/22-sonli qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (K.Narimanov) tuman mahalliy budjetining 2023-yilgi xarajatlar rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’loq qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (L.Kazakbayev) hamda tuman hokimning birinchi o‘rinbosari (U.Ollanov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisining o‘rinbosari **N.Nurmatova**

Xalq deputatlari Payariq tuman
Kengashining
2024-yil 23-yanvardagi
VI-96-10-7-100-K/24-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Payariq tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-74-324-7-100-K/22-sonli qarorining 1-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar:

1. Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Payariq tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-74-324-7-100-K/22-sonli qarorining 1-ilovasini quyidagi tartibda bayon etilsin.

2023-yil uchun Payariq tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**167 425 238**
1	Foyda solig‘i	4 697 000
2	Aylanmadan olinadigan soliq	7 980 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	59 114 400
4	Jismoniy shaxslar tomonidan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar bo‘yicha deklaratsiya asosida to‘lanadigan soliqlar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 741 000
5	- Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	8 341 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	7 468 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 012 800
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 387 038
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 179 000

10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 006 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	250 000
12	Yig‘imlar	3 310 000
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	201 000
	Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)	**42 738 000**
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	17 290 000
15	Mobil aloqa xizmati	7 416 000
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	18 032 000

Xalq deputatlari Payariq tuman
Kengashining
2024-yil 23-yanvardagi
VI-96-10-7-100-K/24-son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Payariq tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Payariq tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-74-324-7-100-K/22-sonli qarorining 2-ilovasiga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalar:

1. **Xalq deputatlari Payariq tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Payariq tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-74-324-7-100-K/22-sonli qarorining 2-ilovasi quyidagi tartibda bayon etilsin.**

2023-yil uchun tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Payariq tumani mahalliy byuydjeti xarajatlari miqdori, jami	**410 698 241**
1	Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi	48 062 208
2	Tuman xalq ta’limi bo‘limi	19 650 167
3	Tuman tibbiyot birlashmasi	139 576 762
4	Tuman madaniyat bo‘limlari	1 783 756
5	Tuman sportni rivojlantirish bo‘limi	6 920 984
6	Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi	1 321 489
7	Tuman veterinariya va choravachilikni rivojlantirish bo‘limi	3 161 056
8	Tuman irrigatsiya bo‘limi	2 040 089
9	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 523 525
10	Tuman hokimligi moliya bo‘limi	1 747 433
11	Tuman hokimligi	169 113 830
12	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Payariq tumanidagi muassasalar	630 390
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	206 625

14	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Payariq tumani bo‘limi	5 715 094
15	Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi	4 065 624
16	Tuman mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash bo‘limi	5 179 209